

I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

ANDIJON VILOYATIDA ISHLAB CHIQRILGAN YALPI HUDUDIY MAHSULOT

2023-yilda Andijon viloyatida ishlab
chiqarilgan
yalpi hududiy mahsulot

YAHM hajmi,
mlrd. so'm

68 223,4

YAHM o'sish
sur'ati

105,1 %

YAHM deflyator
indeksi

114,9 %



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda Andijon viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda –YAHM) hajmi joriy narxlarda 68 223,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022-yil bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi.

YAHM deflyator indeksi 2022-yildagi narxlariga nisbatan 114,9 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Andijon viloyatining qo'shgan hissasi 6,4 % ga yetdi.




Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari

	<i>Mlrd. so'm</i>		<i>O'sish sur'atlari, o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da</i>
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>	
I. YAHM, jami	56 488,3	68 223,4	105,1
<i>shu jumladan:</i>			
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 232,8	65 654,6	105,1
mahsulotlarga sof soliqlar	2 255,5	2 568,8	106,1
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	54 232,8	65 654,6	105,1
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21 653,7	25 165,7	104,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	16 715,6	21 501,7	106,6
sanoat	13 785,3	18 311,8	107,3
qurilish	2 930,3	3 189,9	103,2
xizmatlar	15 863,5	18 987,2	104,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 337,7	4 053,0	109,8
tashish va saqlash, axborot va aloqa	2 659,1	3 212,7	108,6
boshqa xizmat tarmoqlari	9 866,7	11 721,5	102,2

2023-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM (ming soʻmda)

Quyida keltirilgan infografikadan koʻrinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 20 313,6 ming soʻmni tashkil etdi va bu koʻrsatkich oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 2,9 % ga yuqoridir.

2023-yilda aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning oʻsish surʼatlari (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)



2022-2023- yillarda aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi (ming soʻmda)

2022-y.

17 179,6 ming
soʻm

2023-y.


20 313,6 ming
soʻm



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

	<i>Mlrd. so'm</i>	
	<i>2022-yil</i>	<i>2023-yil</i>
I. YAHM, jami	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	96,0	96,2
mahsulotlarga sof soliqlar	4,0	3,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	39,9	38,3
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,8	32,8
sanoat	25,4	27,9
qurilish	5,4	4,9
xizmatlar	29,3	28,9
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,2	6,2
tashish va saqlash, axborot va aloqa	4,9	4,9
boshqa xizmat tarmoqlari	18,2	17,8

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)




2023-yilda hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHM-ni 96,2 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,8 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 38,3 % ni, sanoat tarmog'i 27,9 % ni, qurilish 4,9 % ni va xizmatlar sohasi 28,9 % ni tashkil qildi.



2023-yilda YAHM o'lishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)




YAHM o'lishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 1,5 f.p. (2022-yilda – 1,3 f.p.), sanoat tarmog'i – 1,8 f.p. (2022-yilda – 4,4 f.p.), qurilish sohasi 0,2 f.p. (2022-yilda –0,5 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 1,4 f.p. (2022-yilda – 1,8 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'lishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2022-yilda – 0,5 f.p.)ga ko'paydi.




YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari
(o'tgan yilgning mos davriga nisbatan % da)





2023-yilda YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,1 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 103,0 %), sanoatda – 107,3 % (122,8 %) qurilishda 103,2 % (109,2 %), xizmatlar sohasida – 104,9 % ni (106,1 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 109,8 % (107,7 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 108,6 % (114,3 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,2 % dan (103,3 %) iborat bo'ldi.




YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2023-yilda YAHM deflyatori indeksi 2022-yildagi narxlarga nisbatan 114,9 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoatda – 123,8 % va qurilish sohasida – 105,5 % qayd etildi.



Kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi (jamiga nisbatan % da)



2023-yilda kichik tadbirkorlik subyektlari YAHMdagi hajmi 43 306,2 mlrd. soʻmni tashkil etib (2022-yilda – 36 370,2 mlrd. soʻm), ulushi 66,0 %ni tashkil qildi (2022-yilda – 67,1 %).

Kichik tadbirkorlik-ning YAHMdagi ulushi-ning oʻtgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bogʻliq.



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) – ma'lum bir davr mobaynida ma'muriy-hududiy tuzilishlarda joylashgan iqtisodiy rezident-birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalovchi milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichidir;

Yalpi ishlab chiqarish (YAICH) – hisobot davrida rezident-birliklarning ishlab chiqarish faoliyati natijasini ifodalovchi, ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning umumiy qiymatidir;

Aholi jon boshiga YHM – muayyan davrda joriy narxlardagi YaIM (YaHM) hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) va ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar va boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar – mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

YAHM fizik hajm indeksi – o'tgan yilning shu davr narxlaridagi joriy davr YAHMni (doimiy narxlardagi YAHM yoki real YAHM) o'tgan yilning shu davr amaldagi narxlaridagi YAHMga nisbati kabi hisoblanadi;

YAHM indeks-deflyatori – hudud iqtisodiyotida narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal YAHMning (amaldagi narxlardagi joriy davr YAHM) real YAHMga nisbatini tavsiflaydi.